



МУҒАЛЛИМ Хәм УЗЛИКСИЗ БИЛДИРЕНДИРИЙ

Илмий-методикалық журнал

№ 5/2 2024





МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

5/2-сан

*Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге атынды*

*Қарқалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агенттеги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге атынды.
№01-044-санты ғүйалық берилген.*

Нөкис

5/2-сан 2024

октябрь

Шолжемлестириүшілтер:

**Карақалпақстан Республикасы Халық билгимләндирүү Министрлиги,
ФЗПИИИ Карақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Нагмет АЙЫМБЕТОВ	Хүшбөк НОРБҮТАЕВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Урлбой МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Мавлода АЧИЛОВА	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Алима МАТКАРИМОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Дилшодхұја АЙТБАЕВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тұлқин АЛЛАЕРОВ	Раъно ОРИПОВА
Мариғжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Норим РАХМАНОВ
Фарҳад БАБАШЕВ	Мұқаддас РАХМАНОВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Дурдана РАХМАТУЛЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Шахло БОТИРОВА	Феруза САПАЕВА
Комил ГУЛЯМОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Қажхор ТУРСУНОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Нурзода ТОШЕВА
Мұхтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Саодат ТОШТЕМИРОВА
Холбай ИБРАГИМОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Шохида ИСТАМОВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Умида ИБРАГИМОВА	Амангелди КАМАЛОВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Ризамат ШОДИЕВ
Джавдод ПҮЛАТОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Пердебай НАЖИМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Асқарбай НИЯЗОВ	Умид ХОДЖАМКУЛОВ
Сабит НУРЖАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ

Шин А.В. Управление кадрами в высшем образовании: эффективные модели и подходы	355
Чориев И.Р. Современное состояние реализации воспитательной деятельности в высших образовательных организациях	368
Канлыбаева И.М. Теоретические аспекты развития творческих способностей будущих психологов	375
Джумагулов З.У. Методика развивающего обучения в подготовке будущих учителей технологий	382
Kodirov O. Reflective teaching perspectives of el teaching in uzbek schools	386

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУҮХИЙЛҮК ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Adilkariyev X.T., Rasulova A.M. Konstitutsiya – yangi madaniy-huquqiy renessans poydevori	391
Talipova Yu.Sh. Sharq allomalari nigohida “Ustoz-shogird” an’anasining o’rnii	404
Nomozov M. M., Nuraliyev. X. X. Raqamli kompetentlikning tarix darslaridagi ahamiyati	413
Kushmatova N. Konfiktologiya fanining tarixi	417

ФИЗИКА МАТЕМАТИКА ИНФОРМАТИКА

Pulatova D.A. Aralash ta'lim sharoitida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning zamonaziy yondashuvlari	423
Raximova X.K. Media ta'lim metodlari orqali talabalarni kreativ fikrashga o'rnatish mexanizmlarining nazariy asoslari	433

БАСЛАУШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

Нарманов А.Х. Бошлангич таълим ёшидаги болалар тарбиясида халқ оғзаки поэтик ижодининг ўрни ва ахамияти	444
Achilova M.S. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar emotsiyal sohasi psixofiziologiyasining asosiy xususiyatlari	448
Egamberdiyeva N.A. Inklyuziv ta'limga jalb qilingan autism sindromli bolalar bilan ishlashda o'qituvchi va tyutorning birlgiligidagi faoliyat	452
Tag'onova G.B. Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari	457
Madgapilova N.T. Maktab va MTT ta'limida innovatsion logistikasini boshqarish va uning pedagogik kontseptual masalalari	461
Mirkosimova H.M. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida nutq o'stirishning psixologik xususiyatlari	469
Xusanova N.B. 6-7 yoshli bolalardagi xavotirli holatlarning psixologik xususiyatlari	475
Abduraxmanova Sh.B. Intellektida muammolari bo'lgan zaif eshituvchi bolalarning predmetli amaliy faoliyatini rivojlantirish metod va vositalari	478
Saparova U.B. Tarbiya fani asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida iqtisodiy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirishda sharq mutafakkirlari tarixiy merosining o'mi	484
Shonazarova S.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida falsafiy aksiologik yondashuvni takomillashtirish metodikasi	492
Ziyaqulova M.Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish	498
Bobomurotov S.M. Boshlang'ich ta'limda variativ tushunchalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	503
Gimazutdinov R.G. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badminton o'yini texnikalarini o'rgatish metodikasi	508



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

ARALASH TA'LIM SHAROITIDA TALABALARINI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ZAMONAZIY YONDASHUVLARI

Pulatova D.A.

Chirchig davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: talaba, tadqiqotchilik, yondashuv, elektron resurs, axborot, "Proressionallar piramidası".

Ключевые слова: студент, исследование, подход, электронный ресурс, информация, "Пирамида профессионалов".

Key words: student, research, approach, electronic resource, information, "Pyramid of professionals".

Резюме:

Maqolada universitetlarda talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda zamonaviy yondoshuvlar, ularning ahamiyati, maqsad va vazifalari, ulardan foydalanish algoritmi bo'yicha olib borilayotgan ishlari yoritilgan.

Резюме:

В статье описано современные подходы подготовки студентов к научно-исследовательской деятельности в университетах, их значение, цели и задачи, а также алгоритм их использования.

Summary:

The article describes modern approaches to preparing students for research activities at universities, their significance, goals and objectives, as well as the algorithm of their use.

Oliy ta'linda talabalarning ilmiy tadqiqotchilik haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishga imkon beruvchi elektron o'quv-axborot resurslarini yaratish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, o'qitishda bilish ehtiyojini faollashtiruvchi aralash ta'lim shaklini qo'llash Respublikamizning intellektual resurslari salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.


Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda talabalarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish kabi pedagogik shart-sharoit yaratish zarurligi ta'kidlanadi. Aralash ta'lim muhitidagi innovatsion yondashuvlardan biri talabalarning individual ta'lim yo'naliishini belgilash orqali "Ustoz-shogird" an'anasiiga muvofiq

o'qituvchilarga biriktirish, turli kasb to'g'araklari, klublarga jalb etish hamda ularni turli tadbirdarda ishtirok etishi orqali amalga oshiriladi.

Talabalarning aralash ta'limga harakatlanish trayektoriyasi. Aralash ta'limga muhitida talabaga o'quv jarayonida harakatlanishi hamda o'quv materialini o'rGANISH makoni va vaqtiga belgilab berilgan marshruti varag'i - ta'limga yo'nalishli dasturini taqdim etish muhim hisoblanadi. U o'zida talabaning individual ta'limga trayektoriyasini aks ettiradi.

Turli guruhlardan yoki har bir talaba uchun marshrut varag'i ni tayyorlash unga rivojlanish traektoriyasini ko'rish va taklif qilingan imkoniyatlar maydonida mustaqil tanlash imkonini beradi.

Quyida biz CHDPUning aralash ta'limga shaklida o'quv jarayonining grafigi asosida 1-semestr davomida talabalarning ta'limga trayektoriyasini diagramma ko'rinishida keltiramiz(1-rasm):



1-rasm. Aralash ta'limga sharoitiida talabalarning ta'limga trayektoriyasi

Trayektoriyaning boshlang'ich nuqtasi sa'udan bu OTM hisoblanadi, bu davr an'anaviy ta'limga shakli 1 hafta davom etib, talabalarga marshrut varag'i, ta'limga (elektron o'quv adabitorlari, video va audio kontent)resurslari va o'rGANISH makonlari tanishtiriladi.

Marshrut varag'i da yangi mavzuni o'rGANISH uchun materiallarga havolalar, majburiy va ixtiyorliy topshiriqlar ("yulduzcha bilan"), shuningdek, guruh vazifalari bo'lishi kerak.

Agar talaba uchun o'quv materiallari moslashuvchan onlayn muhit tomonidan tanlangan bo'lsa, unda talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, auditoriyada o'qituvchi va talabalar o'rtaсидаги о'заро munosabatlar makon va shakllarini belgilab ko'rsatish muhimdir. Bunday holda, marshrut varag'ida ushbu mavzu bo'yicha onlayn muhit va muqobil ma'lumot manbalariga havolalarini ko'rsatish yetarli deb hisoblaymiz.

"Maxsus pedagogika" talabalarining individual ta'lim yo'nalishini amalgaloshirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi quyidagilar:

1. OTMning umumta'lim muassasalari bilan hamkorligi: muassasalarda amaliyot o'tash, talabalar amaliyoti, ish dasturlari va bitiruv malakaviy ishlarni tekshirish. Amaliyot davomida to'plangan tajriba o'quv jarayoniga kiritiladi.

2. Pedagogika OTning ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligi: kompleks dasturlarni yaratish, o'quv fanlari mazmunini takomillashtirish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish, ta'lim bosqichlarining uzlusizligini saqlash; OTMning aralash ta'lim sharoitida virtual ilmiy-ijodiy laboratoriyalar vositasida umumta'lim va oliv ta'lim muassasalarining tarmoq o'zaro hamkorligini ta'minlash.

3. Aralash ta'lim sharoitida OTMlar bilan o'zaro hamkorlik: ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar, davra suhbatlari, tajriba almashish platformalari.

4. Turli darajadagi ilmiy-uslubiy konferensiyalar va seminarlarda ishtirok etish, pedagogika OTM talabalarining tadqiqotchilik faoliyati tajribasini tahlil qilish, ilmiy-amaliy seminarlar o'tkazish. Bunda OTMning o'quv-uslubiy bo'limi umumiylah barlik qiladi.

5. OTM talabalarini ta'lim muassasalarida amaliyot o'tashini ta'minlash, yosh olimlar maktabini tashkil etish.

6. Ilmiy laboratoriyalarda ishtirok etuvchi ta'lim tashkilotlari, muassasa xodimlarining ilmiy-tadqiqot faoliyati tajribasiga oid ilmiy maqolalar chop etish.

7. Umumta'lim tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagogika OTM talabalarining kasbga yo'naltirish ishlarni tashkil etish.

8. Ilmiy laboratoriyalarda talabalarining ishtirok etishi.

Talabalarda ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini samarali tashkil etishda ularning kutubxonada ishslash ishtiyoyqini kuchaytirishga tasir etuvchi yo'llarni tatbiq etishga ehtiyoj tug'iladi. Shu borada axborot bilan ishslash bosqichlari hamda rasional harakatlar tizimini buklet tarzida tayyorladik. Bukletning maqsadi talablarning axborot izlash, tahlil qilish, saqlashdagi harakatlarini tizimli va fodali amalgaloshirishga erishishdan iborat.

Buklet qismlari:

- axborot resurs markazi tuzilishi va faoliyat bo'limlari rasmi;
- axborot texnologiya markazi tuzilishi va faoliyat bo'linmalari;
- sohaga oid o'quv-metodik adabiyotlar ro'yxati;
- jahonning ilg'or elektron ilmiy-ta'lif manbalari ro'yxati.

Ushbu bukletda talabalar uchun kasbiy faoliyatga yoki kelajakda biron-bir yozib topshiriladigan yozma ish(kurs ishi, bitiruv ishi, yozma ish)larni tayyorlashga zurur adabiyotlar ro'yxatini tuzish uchun ko'rsatmalar ham taqdim etildi. Quyida kutubxonada kerakli adabiyotlar ro'yxatini tuzishga oid ko'rsatmani keltiramiz.

Ma'lumki, kerakli adabiyotlarni izlash uzoq muddatli ishdir. Adabiyotlar va ularning ro'yxati kasbiy, ilmiy faoliyatda ahamiyatlidir. Chunki aksariyat ilmiy va o'quv izlanishlarining sifati o'qib o'rganilgan va e'lon qilingan materiallarning mazmunga mosligi va to'liqligiga bog'liq bo'ladi.

O'quv va ilmiy adabiyotlar bilan muvaffaqiyatli ishlash uchun talabalarda axborot bilan to'g'ri ishslash ko'nikmasiga ega bo'lish talab etiladi. Quyida axborot bilan to'g'ri ishslashning bosqichlarini keltiramiz:

1-bosqich. Axborot bilan ishslash maqsadlarini belgilash.

Axborot bilan ishslash har doim ma'lum maqsadlarni, ya'ni kishi erishmoqchi bo'lgan foydani nazarda tutishi kerak. Boshqa har qanday holatda bo'lgani kabi, maqsadlar imkon qadar aniq shakllantirilishi kerak, shunda bu maqsadlarga erishish uchun ma'lumot bilan qanday ishslash kerakligi aniq bo'ladi.

2-bosqich. Axborotni qidirish. Ma'lumotni qanday qidirish kerak?

Axborot bilan ishslashni aniqlash uchun avvalo uni topish kerak. Axborotni izlash bevosita axborot manbasini qidirishni, uning haqqoniyligini, dolzarbligini va foydaliligini tekshirishni o'z ichiga oladi. Barcha ma'lumotlar manbalarini taxminan 3 toifaga bo'lish mumkin:

1. Ommaviy axborot vositalarining axborot manbalari. Bunga har qanday ommaviy axborot vositalari kiradi: Internet nashrlari, matbuot, televideonie, radio.

2. Yuqori ixtisoslashgan axborot manbalari. Bunga tematik saytlar va bloglar, kitoblar, ilmiy maqolalar va alohida mualliflarning tahliliy maqolalari, muayyan kompaniyalar va moliyaviy tashkilotlarning saytlari kiradi. Bunday manbalar, qoida tariqasida, birinchi guruh vakillariga qaraganda ko'proq to'liq va foydali ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

3. Axborotning tirik manbalari(o'qituvchilar, soha mutaxassislari va boshqalar).

Ma'lumotni qanday izlash haqida o'ylayotganda, uni olish imkoniyatini ham hisobga olish kerak. Kishilarning ommaviy nutqlaridan va xatto shaxsiy muloqot orqali olingan so'zlardan ham foydalanish mumkin.

Qiziqtirgan sohada bir nechta ishonchli ma'lumot manbalariga ega bo'lish afzaldir. Agar ularning barchasi bir xil yoki o'xshash ma'lumotlarni taqdim etsa, bu ma'lumotlarning haqiqat bo'lish ehtimoli sezilarli darajada oshadi.

3-bosqich. Axborotni tahlil qilish.

Axborot bilan bevosita ishlash har doim uni tahlil qilishdan boshlanadi. Qabul qilingan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun, birinchi navbatda, olingan barcha axborot, ma'lumotlar, bilimlarni ikkita oddiy toifaga bo'lish kerak:

1. Foydali ma'lumotlar.
2. Unchalik foydali bo'lmagan ma'lumotlar.

4-bosqich. Axborotni saqlash.

Ma'lumot bilan ishlashni boshlashdan oldin saqlash kerak. Ayniqsa, strategik yoki taktik ma'lumotlar haqida gap ketganda – bu uzoq vaqt davomida unutmaslik uchun kerak bo'ladi.

Axborotni saqlash shunday tizimlashtirilgan bo'lishi kerakki, har doim kerakli ma'lumotlarga kerakli vaqtida tez va oson kirish mumkin bo'lsin. Ma'lumotni saqlovchi barcha vositalarning ikki xil shakli mavjud:

- qog'oz ko'rinishidagi ma'lumotlar;
- elektron shakldagi ma'lumotlar.

Yana shuni unutmaslik kerekki, ma'lumotlarning nusxasini faqat elektron shaklda saqlash uning yo'qolishi bilan xavfli hisoblanadi, chunki har qanday texnika buzilib, sozlanmasligi ham mumkin. Shuning uchun ma'lumotning elektron va qog'oz shaklini va bir necha nusxalarni yaratish kerak. Buning uchun flesh-disklardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.


Bulut xizmatlari ma'lumotlarni boshqa serverlarda onlayn saqlash imkonini beradi (Yandex Disk, Google Disk va boshqalar).

Bosqich 5. Olingan ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish.

Axborot bilan bog'liq barcha ishlar birinchi bosqichda qo'yilgan maqsadlarga asoslanib, natijada qaror qabul qilishga to'g'ri keladi. Yakuniy qarorning aniqligi va to'g'riligi, ham strategik, ham operatsion ma'lumotni qidirish, tahlil qilish, qayta ishslash va saqlashni qanchalik malakali amalga oshirilganligiga bog'liq bo'ladi.

Eng muhim talabalar ma'lumotni aniqlash, topish usullarini o'zlashtirdilar. Ular tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar ma'lum vaqtida va makonda zarur bo'lib, muayyan vazifalarni hal qilish uchun foydalaniladigan resursga aylandi.

Aralash ta'lim sharoitida tahsil olayotgan talabalarining asosiy kontingenti ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qiyotganligi hamda aksariyati uzoq hududlardan kelishi universitet ARMdan unumli foydalanish uchun imkoniyatlarini chegaralasada, muassasa "cspi.uz" veb-saytining elektron resurslari bo'limi "LIB.CSPI.UZ" dan foydalanish tavsiya etildi. Axborotlar bilan ishlashda elektron axborot resurslaridan foydalanish juda qulay usul sifatida talabalar tomonidan ijobiy qabul qilindi. Shu sababli keyingi o'rinda ta'limning elektron axborot resurslarini haqida ayrim ma'lumotlarni berib o'tishni ma'qul deb topdik.



Zamonaviy o'quv elektron nashrlarni tahlil etish ularning murakkab tuzilishga ega bo'lib, klassifikatsiyaga muxtojligini ko'rsatdi. Elektron o'quv nashrlar klassifikatsiyasi asosida ham o'quv, ham electron hamda dasturiy vositalar klassifikatsiyalarining umumiy metodlari yotadi.

O'quv nashrlari quyidagi turlarga bo'linadi:

o'quv jarayonidagi ahamiyati va o'mini belgilovchi funksional xususiyatiga ko'ra;

maqsadiga ko'ra;

taqdim etiluvchi axborot xarakteriga ko'ra;

matnning tashkil etilishiga ko'ra;


ifoda etilish shakliga ko'ra.

Elektron nashrlar quyidagi belgilariga ko'ra tavsiflanadi (2-rasm):

Hozirgi vaqtida o'quv nashrlarining to'rt xil turdag'i nashrlarni o'z ichiga oluvchi tipologik modeli mavjud bo'lib, bularga:

- Dasturiy-uslubiy (o'quv rejasи va fan dasturlari);
- O'quv-uslubiy (uslubiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar);
- O'qituvchi (darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari);
- Yordamchi (praktikumlar, masala va mashqlar to'plamlari).

LOGOPEDIYA ASPEKTLARI




Pedagogika OTM talabalarini tadqiqotchilik tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash tizimining mazmuni protsessual element shaklida qo'llab-quvvatlanadi: o'qitish shakllari, usullari, vositalari va texnologiyalari to'plami, bu sohada ko'rsatkichlarni ishlab chiqishni faollashtiradi. Tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayoni tegishli vositalarni tanlash bilan bog'liq.

Elektron ta'lif resurslari an'anaviy majmularidan farqliroq, o'qitishning kompyuter va an'anaviy texnologiyalari birligi sifatida namoyon bo'ladi. Elektron ta'lif resurslari asosida o'quv jarayonini tashkil etishda multimedia texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lif oluvchilarga o'qishga qiziqishni yanada orttiradi, ta'lifning interaktiv xususiyati asosida qo'llanilishi ta'lif oluvchilarlarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'quv materiallarini o'zlashtirilishining samaradorligini oshiradi. Shu bilan bir qatorda elektron ta'lif resurslari real hayotlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini beradi, o'quv materiallarining o'zlashtirilishi nafaqat darajasiga ko'ra, balki ta'lif oluvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlari darajasiga ko'ra ham samarali bo'lishini bildiradi.

Ta'lif jarayonida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi ta'lif texnologiyalarini qo'llanildi: ma'ruba-taqdimot, muammoli-keys, loyihalash, davra suhbati, kommunikativ platforma. OTM talabasining individual ta'lif yo'nalishini belgilab berish bilan birgalikda, Ustoz-shogird tizimi tamoyillariga asoslangan "Professionallar piramidasasi" shakllantirildi.

"Professionallar piramidasasi" ning mexanizmi:



kafedraning har bir professor-o' qituvchisiga 10 nafardan iqtidorli talabani biriktirish;

talabalarning individual rivojlanish dasturini tuzish;

defektologiya sohalari hamda inklyuziv ta'linda mavjud muammolarga oid ilmiy-tadqiqot mavzulariga individual tarzda hamda talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda mavzularni biriktirish;

talabalarda ilmiy tasavvurini rivojlantirishda kafedralarda tashkil etilgan "Talaba-talabaga ustoz", "Mentorlik sari" kurslari, "Profi arena" klub faoliyatini yo'lga qo'yish;

piramidaning ish faoliyatini muvofiqlashtirish boruvchi ishchi guruhni tashkil etilish.


"Professionallar piramidası" quyidagi modellarning biri ko'rinishida faoliyat olib boradi:

1.Talabalarning muvaffaqiyatiga yo'naltirilgan model.

2.Talabalardagi bo'shlari va muammolarga yo'naltirilgan model.

3.Aralash model.

"Professionallar piramidası" ni tashkil etish mazmuniga ko'ra faoliyat mexanizmi ko'rinishini quyidagicha tasvirlash mumkin (3-rasm).



3-rasm. "*Professionallar piramidası*"ning faoliyat mexanizmi

Piramidan tashkil etuvchilarining funksiyalari quyidagilardan iborat:

Piramida koordinatori (Pedagogika fanlari doktori(DSc), professor) - Maxsus pedagogika sohasining dolzarb masalalariga oid bosh tadqiqot mavzusini

aniqlaydi, rahbarligi ostida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun ustuvor yo'nalish va strategiyani belgilab beradi.

Piramidaning moderatorlari- (Pedagogika fanlari nomzodlari(PhD), dotsentlar) tanlangan bosh tadqiqot mavzusiga oid ilmiy izlanish olib borib, dissertatsiya himoya qiladilar. Tadqiqot mavzusiga yaqin magistrlarning ilmiy pedagogik va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga rahbarlik qiladilar.

Moderator-magistrlar- dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot ishini olib boradilar, bakalavr bosqichidagi tadqiqotchi, iqtidorli talabalar bilan maqola va tezis nashr etishda ishtirok etadilar.

Operatorlar (Bakalavr bosqichidagi ish bilan band talabalar) - bakalavr bosqichidagi tadqiqotchi talabalar bilan ilmiy-amaliy sinergetik faoliyatni olib boradilar. Tadqiqotchi talabalarga nazariya bilan amaliyotni bog'liqligi, Maxsus pedagogika sohasidagi kasbiy amaliyotda mavjud muammolarni yetkazadilar. Tadqiqot olib borayotgan talabalar dolzarb muammolar yuzasidan ilmiy-nazariy izlanish olib boradilar, ilmiy loyiha va tadbirlarda ishtirok etadilar. Mualliflik maqola va tezislarini tayyorlaydilar.

Maxsus pedagogika tayyorlov yo'nalishining mutaxassislik modullari bo'yicha eng iqtidorli talabalar aniqlanib, "Talabalar akademiyasi" tashkil etildi.

Talabalarning tadqiqotchilik faoliyatiga motivatsiyasini hamda "Talabalar akademiyasi"da faolligini oshirish maqsadida turli rag'batlantiruvchi ko'rik-tanlovlar, jumladan "Istiqlolli tadqiqotchi" ko'rik tanlovi nizomi ishlab chiqildi(ilova qilinadi), ko'rik tanlovnini har o'quv yilida bir marta o'tkazish rejalashtirildi.

Tanlovda g'olib chiqqan iqtidorli talabalarni rag'batlantirish maqsadida ularning ilmiy-tadqiqot ishlarini universitet mablag'lari hisobidan Scopus va Web of Science xalqaro ma'umotlar bazalariga kiritilgan hamda yuqori impakt faktorga ega bo'lgan xorijiy va mahalliy jurnallarda chop etish yo'lga qo'yildi.

"Talabalar akademiyasi" talabalarini nomdor davlat stipendiyalari, ilmiy tadqiqot, startap, drayver, xalqaro loyihalarga maqsadli va natijali mexanizm asosida tayyorlash ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi;

Pedagogika OTM talabalarining tadqiqotchilik kompetenssiyasini shakllantirish darajasini takroriy diagnostika qilish o'quv, uslubiy, ilmiy va amaliy tadqiqot komponentlarining ko'rsatkichlarini ishlab chiqish uchun ularning tadqiqotchilik faoliyatini talab qiladigan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni talab qildi.

Aralash ta'lim sharoitida tashkil etilgan konferensiya davomida quyidagi masalalar muhokama qilindi:

- 1) Maxsus pedagogika fan mazmunini yangilash;
- 2) ta'lim jarayonida istiqbolli ta'lim texnologiyalari, elektron ta'lim va axborot resurslarini takomillashtirish;
- 3) ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik modellari, ish beruvchilar va ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik;
- 4) oliy ta'limning ta'lim dasturlarini amalga oshirish sifatini ta'minlash bo'yicha samarali amaliyotlar, muhandislik ta'limi sifatini monitoring qilish va baholash texnologiyalari;
- 5) uzlusiz kasbiy ta'lim, ta'lim tashkilotlarida kompetensiyalarini amalga oshirish;
- 6) inklyuziv ta'lim amaliyoti - resurs va ilmiy-uslubiy ta'minot, tashkiliy, boshqaruva va psixologik-pedagogik yordam;
- 7) maxsus pedagogikaning dolzarb muammosi sifatida o'quv jarayonini psixologik-pedagogik ta'minlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- 8) virtual ilmiy laboratoriyalarda talabalarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini takomillashtirish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, virtual ilmiy-ijodiy laboratoriya da talabalar tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayoni samaradorligi zamonaviy texnologik sharoitlardakasbiyta'lim berish, OTM bo'limining ta'lim klasteridagi ish beruvchi bilan o'zaro hamkorligi va integratsiyalashuviga bog'liq. OTM talabalarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayonini samaradorligini oshirishda "Profisionallar piramidasи", "Talabalar akademiyasi" ni shakllantirish, kafedra talabalarini o'rtasida "Eng yaxshi ilmiy maqola", "Istiqlabolli tadqiqotchi" tanlovini o'tkazish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 08.10.2019-yil. URL: <https://lex.uz/ru/docs/4545887>.
2. Я.К.Абрамова Смешанное обучение как инновационная образовательная технология//Перспективы развития информационных технологий. 2014. №17. С. 115-119.
3. B.Watwood, J.Nugent, W.Deihl "Building from Content to Community: Rethinking the Transition to Online Teaching and Learning: A CTE White Paper". – Richmond: Virginia Commonwealth University, 2009. – 22 p. – Р. 5.
4. D.A.Pulatova. Oliy ta'limda virtual ilmiy-ijodiy tadqiqotlar laboratoriyasini tashkil etish. "Мугаллим ҳэм узликсиз билгимленирий" 2023yil, №6/4, 326-329-b
5. D.A.Pulatova. Oliy ta'limda aralash ta'limni tashkil etish tendensiyalari. "Xalq ta'limi" 2023yil, №3, 49-54-b.
6. D.A.Pulatova. Подготовка студентов к исследовательской деятельности в условиях смешанного обучения. «Maxsus pedagogika: muammo va yechimlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 21-aprel 2023-yil.249-251 betlar.